

Oriental Journal of Education



ORIENTAL JOURNAL OF EDUCATION

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/oje>



THE ROLE AND TASKS OF IMPROVISATION IN THE CREATIVE DEVELOPMENT OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

D. N. Rakhamonova

senior lecturer

Termiz State University

Termiz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: improvisation, melody, primary grade music literacy, types of activities in music, music culture, song, choir, creative activity.

Received: 18.04.24

Accepted: 20.04.24

Published: 22.04.24

Abstract: The role and tasks of improvisation in the creative development of elementary school students presented in this research work are emphasized during the lessons, with particular emphasis on the stages of the student's creative development, and its meaning and tasks are advanced.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIV RIVOJLANISHIDA IMPROVIZATSIYANING O'RNI VA VAZIFALARI

D. N. Rakmonova

katta o'qituvchi

Termiz davlat universiteti

Termiz, O'zbekiston

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: improvisatsiya, kuy, boshlang'ich sinf musiqa savodi, musiqada faoliyat turlari, musiqa madaniyati, qo'shiq, xor, ijodiy faoliyat.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida keltirilgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ rivojlanishida improvizatsiyaning o'rni va vazifalarini dars mashg'ulotlari mobaynida qo'llash orqali o'quvchining ijodiy rivojlanishdagi bosqichlariga alohida to'xtalib, uning ma'no mazmuni hamda vazifalari ilgar surilgan.

РОЛЬ И ЗАДАЧИ ИМПРОВИЗАЦИИ В ТВОРЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ

Д. Н. Рахмонова

старший преподаватель

Термезский государственный университет

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: импровизация, мелодия, начальная музыкальная грамота, виды музыкальной деятельности, музыкальная культура, песня, хор, творческая деятельность.

Аннотация: Представленные в данной исследовательской работе роль и задачи импровизации в творческом развитии учащихся младших классов подчеркиваются на уроках, при этом особое внимание уделяется этапам творческого развития ученика, раскрываются ее смысл и задачи.

KIRISH

Mamlakatimizdagi uzlusiz ta’lim tizimidagi tub o‘zgarishlar aynan musiqa ta’limining asosiy yo‘nalishi, maqsadlari va vazifalarida, musiqa darsida ham aks etdi. O‘zining avvalgi shaklini saqlab qolgan holda, u o‘quvchilar faoliyatining yangi turlari – musiqa tinglash, ritm, improvizatsiya bilan boyitilib, boshqa tarkibga ega bo‘ldi. Mustaqillikdan oldingi musiqa pedagogikasi fanidan o‘rganilgan xalq qo‘shiqlarida musiqiy savodxonlikni o‘zlashtirish kabi tadbirlar bolaga musiqani chuqurroq his qilish va tushunishni o‘rgatishning yangi umumiy maqsadiga bo‘ysunadi. Musiqa o‘qituvchilarini bunga erishish yo‘lini asosan ta’lim muammolarini hal qilishda ko‘rdilar. Bu esa bir vaqtning o‘zida ta’lim va tarbiyaning maqbul nisbati ikkinchisining foydasiga buzilishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan musiqa nota yozuvlari asosida qo‘shiq o‘rgatish darsida o‘z o‘rnini ko‘rsatadi. Bu musiqa ta’limining ixtiyoriy elementlarini o‘rganish va uni o‘qitish jarayoniga qo‘llash mexanizmlaridan biriga aylanib, unda o‘qituvchi uchun ozmi-ko‘pmi muhim vazifani bajaradi.

ASOSIY QISM

Musiqa ta’limi, xususan, qo‘shiqnin o‘rganishda notadan foydalanish va uni yangi musiqa ta’limi tizimida munosib o‘rin topa olish, musiqa ta’limi metodologiyasining eng namunali an’analari bilan uzilish uslubiy fikrning rivojlanishiga jiddiy to‘sinqinlik qildi. Bu esa umumta’limi matabida musiqa ta’limi ishining yuqori saviyada tashkil etish samadorligini ko‘rsatadi.

Bola ijodkorligini rivojlantirish g‘oyasi ta’siri ostida samarali tizimli ta’limni takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga “erkin, sof badiiy ritm” bilan qo‘shiq aytishga, “kuyni o‘zlashtirishga”, “erkin qo‘shiq aytishga” intilish ko‘nikmalarini shakllantirishga, ayniqsa, ularga tovushlarni, tovush xissini, turg‘un va noturg‘un zarbalarni his etish kompetensiyalarini tushuntirib borish lozim bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qo‘shiqnin kuylash, mashq qilish va h.k.z kabi ijrochilik musiqa savodxonlik ko‘nikmalarini takomillashtiradi. Ayniqsa, qo‘shiqnin ovozlarga bo‘lish va har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘z ovoz partiyalarini sekin asta tushunishlari va uni o‘zlashtirib borish ko‘nikmalarini takomillashtirib boradilar. Har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘zini butunlay erkin qo‘shiq aytishi kerakligi, eng muhimi qo‘shiq aytishga faqat o‘z xohish-istiklariga ergashishlarini tushunib boradilar.

So'nggi yillarda umumta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqa ta'limi sohasida keng tarqalgan qo'shiq kuylash (ijrochilik) ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirishda bolalarning ta'lim jarayonida istaklari va ehtiyojlariga rioya qiladigan erkin tarbiyaning istiqbolli nazariyasini paydo bo'lishini ta'minlaydi.


Improvizatsiya - musiqani ijro jarayonini o'zidayoq bastalash, yaratish degan ma'noni bildiradi. Dars mobaynida ashula aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa darslari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi.

Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarida badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va musiqiy idrok tushunchasini o'stiradi. Bundan tashqari, darsda o'quvchilari musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqlar bolalarda ritm tuyg'usini, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda jismonan, ruhan to'g'ri o'sishiga yordam beradi.

Yuqoridagi amaliy hamda nazariy ijodkorliklarni amalga oshir davrida qiyinchiliklar yoki ijodiy yondoshuvlar yuzaga kelishi tabiiy holat xisoblanib, bu vaqtda o'qituvchidan musiqiy savodxonlik, ijodkorlik hamda cholg'u ijrochiligi mahorati alohida talab etiladi.

Sababi qo'shiq melodiyasiga xos ohanglarda garmoniyalash, boshqa ohangga transpozitsiyalash (ko'chirish), temptiga o'zgartirishlar kiritish, musiqaga qo'shimcha nolalar kiritish ya'niy improvizatsiya qilish vazifasi talab etiladi.

Musiqiy namunani qisman yoki to'liq o'zgartirilishi, yangisini o'ylab topish, bastalash deb belgilangan. Bastakorlar, kompazitorlar va shular qatorida musiqa madaniyati o'qituvchilari o'quvchilari uchun bastalangan kuy – qo'shiqlardan asarlar, namunalar yaratishi va ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishi tushuniladi. Unga ko'ra o'quvchilarining yoshini, psixologiyasi va fiziologiyasini inobatga olgan xolda ijodiy ishlarni yo'lga qo'yishlari mumkin xisoblanadi.



1-rasm. Improvizatsiyaning maqsad, vazifasini, turi hamda rivojlanish bosqichlarini musiqa savodxonligi faoliyati bilan bog‘liqligi.

Ijodiy o‘zgartirish kiritish yoki butunlay yangi ijodiy namuna hosil qilish deb belgilangan. Muayyan o‘quv predmeti (musiqa, qo‘sish) mazmunini loyihalashda (qayta bastalash) birinchi navbatda ta’limning umumiy maqsadi, keyin esa o‘quv predmeti maqsadlariga asoslanish lozim. O‘quv predmeti mazmunini loyihalash ya’niy (qayta ishlash, o‘zgartirish kiritish, ijodiy namunalar xozisl qilish) uchun ta’limning bosh maqsadi va o‘quv jarayonining xususiy maqsadlarini aniq bilish talab etiladi. Aks holda, ta’lim maqsadi bilan uning mazmuni (o‘rgatiladigan kuy, qo‘sish, ashula) orasidagi muvozanat yo‘qoladi. ta’limda o‘rgatiladigan maqsad qo‘sik kuy bolsa undagi vazifa asarning aynan qayerida qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar belgilab olinadi.

Rivojlanish bosqichlari - ritmik dialog tarzida, yakka yoki jamoa shaklida, to‘ldirish shaklida, tugallanishi turlicha bo‘lgan shaklda deb belgilangan. Musiqa o‘qituvchisi yaxshi sozanda va yaxshi san’atkor bo‘lishi lozimdir. Musiqa asbobida yaxshi chalish, ijro eta olish, yaxshi ovozga ega bo‘lishi, notaga qarab yaxshi ijro etish, bolalar qobiliyatini ajrata bilishi lozimdir. Musiqa o‘qituvchisi musiqa asbobda yaxshi ijro etishni juda muhimligi quyidagicha ko‘rsatiladi. Birinchidan; jonli ijro etish – Sinfda kayfiyatni yaxshilaydi. Ikkinchidan; jamoa bo‘lib (xor) ijro etayotganda hohlagan epizodni yoki (taktik) jumlanı qaytarish. Uchinchidan: Musiqa asbobida ijro eta oladigan musiqa o‘qituvchisi o‘z tarbiyalanuvchilariga musiqani o‘zi ijro etish naqadar qiziqarligini va muhimligini amaliyotda ko‘rsatib o‘tadi.

Musiqa o‘qituvchisi musiqa asbobini yaxshi ijro etishi bilan cheklanb qolmay yaxshi tovush, dirijyorlik jesti bilan musiqa nazariyasini mukammal bilmog‘i va ijod qilishi lozimdir. O‘qituvchini shaxsiyatini musiqa fanining taqdirini hal qiladi. O‘qituvchi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi ham lozim. Doimiy kuzatishlar sababli o‘qituvchi pedagogik mahoratini egallay boshlaydi. U vaziyatni (situatsiyani) baholashga, o‘quvchilarining ichki tuyg‘ularini sezishga o‘rganadi. Kuzatish 1-7 - sinfgacha davom etadi. Eng asosiysi: o‘qituvchi asarni ijro etibgina qolmay balki uning mazmuni bilan ham tanishtirish lozim, buning uchun o‘qituvchini nutqi ravon, qisqa, hamda tushunarli bo‘lishi kerak.

Turi - spontan (o‘z-o‘zidan) ijodkorona deb belgilangan. Boshlang‘ich sinflarda kreativlikni yo‘lga qoyish uchun estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyalaridan unumli foydalanish kerak. Kreativlik kompetensiyasida o‘quvchilar 7 ta notaning nota yo‘lida joylashuvini biladi va yozib ko‘rsata bidilar. Skripka (sol) kalitini nota yo‘lidagi joylashuvini yoza oladi, tovushlarni ifodalashda nota yo‘lidan foydalana oladi. Cholg‘ularni tuzilishi va ovoz tembriga ko‘ra bir biridan farqlaydi. Kuya ritmik jo‘r bo‘la oladi; Kuy ritmini chapak va bolalar shovqinli cholg‘ularda ifoda eta olishga erishadilar.

Musiqa darslarida o‘qituvchi dars mashg‘ulotlarida faoliyat turlarini tashkil qilishda ham improvizatsiyadan foydalanishi katta ahamiyat kasb etadi. Musiqa bastakor va kompazitorlarining ijod qalamiga mansub ayrim asarlari o‘quvchi yoshi hamda psixologiyasiga tog‘ri kelmasligi o‘qituvchidan asar yuzasidan yangicha usullar orqali tushuntirishni talab etadi. Misol uchun: 5-sinf musiqa darsligida keltirilgan Muxtor Ashrafiyning o‘zbek musiqasidagi o‘rni va Sulaymon Yudakovning “Maysaraning ishi” operasi, uning yaratilish tarixi, o‘rni va ahamiyati mavzusida keltirilgan “Mulla do‘st qo‘srig‘i” ni tinglash hamda kuylatishda pedagog improvizatsiyadan foydalanishi maqsadga muvofiq xisoblanadi.

“Mulla do‘st qo‘srig‘i”

Kel dirlabo - yo hushdoringman,

Kechalari - yo bedoringman.

Ishva bilan - o yuzing ko‘rsat,

Oy jamolingni humoriman.

Oyjamolingni humoriman

Humoringman, hushoringman, bedoringman jon!

Endi ushbu qo‘sinqi aziz o‘quvchilarning yangi talqinida, so‘zlarini yoshiga mos ravishda o‘rganishga harakat qilamiz. Asar kuyiga umuman o‘zgartirish kiritilmaydi faqatgina qo‘sinq matni yoshga moslashtiriladi.

Kel dirlabo yo o‘rtog‘ingman,

Kunduzlari yo quyoshingman.

Kulib-kulib-o yuzing ko‘rsat,

Oyjamolingni tumoriman.

Oyjamolingni tumoriman.

O‘rtog‘ingman, quyoshingman, tumoriman jon!

XULOSA

Impeovizatsiya qilingan so‘zlar o‘quvchilarning ruhiyatiga, dunyo qarashiga bir so‘z bilan aytganda yoshga doir psixologiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kiritilgan o‘zgarishlarda bir-biriga o‘rtoqlik, do‘stlikni quyoshga qiyoslash, ichki va tashqi ko‘rinishga nisbattan o‘zaro hurmat tarzida ifodalanishi o‘quvchilarda birdamlik, o‘zaro do‘stlik hurmatini oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika” Darslik. – T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil.
2. G.M Sharipova, G.T.Tojiyeva “Musiqa metodikasi” Toshkent 2021-yil
3. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limining “Milliy o‘quv dasturi”. “Musiqa” fanining milliy o‘quv dasturi.

4. D.N.Raxmonova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqa savodxonligi” nomli o‘quv qo‘llanma. Toshkent 2020-yil “Innovatsiya-Ziyo”

5. D.N.Raxmonova “Elektron magnitli musiqiy doska yordamida o‘quvchilarning musiqa fanidan bilim darajasini oshirish” nomli uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2020-yil “Innovatsiya-Ziyo”